

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA  
O'QITUVCHISI KASBIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHARTLARI VA METODLARI**

**I.Yo'ldashev**

*Ilmiy rahbari PhD, dotsent. Farg'ona davlat universiteti jismoniy*

*madaniyat fakulteti dekani*

**Po'latova Shahnoza Ikromjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti magistratura bo'limi jismoniy tarbiya va sport  
mashg'ulotlar nazariyasi 2-kurs 21.02 guruh magistranti*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola jismoniy tarbiya o'qituvchilari umumta'lismaktablarda ommaviy-sport ishlarni olib borishlari, jismoniy tarbiya o'qituvchisi jismoniy tarbiya jamoasi faollarini tarkib toptirishi va tarbiyalay olishi haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *sport, ilg'or, harakat, sektor, jismoniy tarbiya, anketa, sport instruktori, tajribali murabbiylar.*

### KIRISH.

Bugungi globallashuv jarayoni o'quvchilarni kasbga yo'naltirish borasida maktab oldiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, Respublika miqyosida bolalar sportiga alohida e'tibor berilayotgani, uch bosqichli tizimni joriy etilishi hamda jismoniy tarbiya va sportning jadallik bilan rivojlantirishga bo'lgan harakat, sohaning o'ziga xos dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Shuning uchun turli hududlarda bolalar sportini rivojlantirish uchun eng avvalo jismoniy tarbiya o'qituvchilarini umumiyl o'rta maktablarida har tomonlama etuk darajada bo'lishini ta'minlash hamda ularning malakasini oshirish zarur hisoblanadi.

Bizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri o'quvchilarni maktab yoshidan boshlab, jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiga bo'lgan qiziqishini shakllantirishdan iborat.

Bunday murakkab vazifani bajarish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarining turli xil sektorlar bilan ijtimoiy hamkorligini ta'minlash, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish zarur.

Bugungi kunda maktab o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltiruvchi eng asosiy vosita umumiy o'rta ta'lim maktablari hisoblanadi. Ular o'z faoliyatini mahalliy hokimiyat hamda mutasaddi tashkilot rahbarlari bilan kelishilgan holda 8-9 sinf o'quvchilarini kasb tanlashga bo'lgan qiziqishini shakllantirishi

lozim. Bu ishlarni Respublikamizda ilg'or pedagogik tajribalar asosida olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi hamda sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun xizmat qiladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga samarali yo'naltirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fanidan darsdan tashqari mashg'ulotlar davomida o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari davomida o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish hamda faoliyatni rejalashtirish, dasturini ishlab chiqishda esa o'quvchilarning yoshi, individualligi hisobga olingan metodikalardan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

- tajriba-sinov jarayonida o'tkazilayotgan mashg'ulotda berilgan materiallar o'quvchilarni qiziqtira olish imkoniyatiga egaligiga e'tiborni qaratish, buning uchun har bir mashg'ulot mavzusi bo'yicha berilgan axborotlar, topshiriqlar o'quvchilarni zeriktirib qo'ymasligini ta'minlashi;
- mashg'ulotdagi mashqlar va topshiriqlar o'quvchilarning o'zlashtirgan o'quv vositalarini takrorlash imkoniyatiga egaligini hisobga olish;

- mashg'ulotlarda o'quvchilarning tinglab tushunish, harakat ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan aniq tarkibiy tuzilishga ega bo'lgan o'quv materiallari mavjudligiga ahamiyat berish;

- pedagogik tajriba-sinov o'tkazish uchun imkoniyatlari har tomonlama mos keladigan va bir xillik aks etgan sinf guruahlari bo'lishi shartligi kabilar.

Tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilarni jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiga yo'naltirish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi.

1. O'quvchilarga kasbiy axborotlar va kasbiy ma'lumotlar berish;
2. Kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo'nalishlari va kasblari bo'yicha ma'lumotlar berish;
3. Berilgan ma'lumotlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini anketa so'rovlari va metodikalar yordamida tekshirib ko'rish;
4. Olingan natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

Maxsus anketa so'rovnomani o'tkazishning bosh g'oyasi bugungi kunda o'quvchi-yoshlarning qiziqishlari, qobiliyatlari va xohishlarini aniqlash, o'z vaqtida mustaqil kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashishdan iborat.

Mazkur anketa tajriba-sinov o'tkazilishi mo'ljallangan Farg'ona viloyati Farg'ona shahridagi 44-sonli hamda 41-sonli umumta'lim maktablarida o'tkazilib, o'quvchilarning kasb-hunar tanlashga nisbatan qiziqishlari, qobiliyatlari va xohish-istiklari xususan jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabatlari o'rganildi. So'rovnomalarini o'tkazishning asosiy vazifalari etib, o'quvchilarning qiziqishlari, qibiliyatlari va xohish-istiklarini aniqlash metodikasi natijalarini tahlil etish; tahlil natijalariga ko'ra ta'lim muassasalari

uchun kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus dastur yaratish (jismoniy tarbiya bo'yicha); o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va intilishlarini o'rganish orqali kasb-hunarga yo'naltirishning samarali metodlarini tavsiya etishdan iborat qilib belgilandi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida respondentlar sifatida belgilangan o'quvchilar (120 nafar) ishtirokida olib borilgan tadbirlar quyidagi metodlar yordamida tashkil etildi: tushuntirish, hikoya qilish, suhbat, amaliy mashg'ulotlar, trening, ijtimoiy, anketa va test so'rovlari, intervyu, noan'anaviy metodlar – aqliy hujum, tabaqalashtirilgan tashxis so'rovnomasi (TTS), va hokazolar.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi vositalardan foydalanish samarali ekanligi aniqlandi: o'quv va metodik adabiyotlar, mashg'ulotlarning ishlanmalari, sxemalar, tasvirlar, loyihamalar, diagrammalar, kasb va hunarlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati xususida mutafakkirlar tomonidan bildirilgan fikrlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, xorijiy mamlakatlar tajribalari, axborot-kommunikatsiya vositalari, turli sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar hayoti va faoliyati namunalaridan foydalanish va boshqalar.

Umumiy o'rta ta'limga muktablari o'quvchilarini jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiga qiziqtirish borasidagi tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda tashkil etilishi rejalashtirilgan: aniqlashtiruvchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlar. Ularning har biri aniq vazifalarning hal etilishiga yo'naltirildi.

1.Tajriba-sinov ishlaring tashkiliy bosqichi. Tajriba-sinov ishlaring dastlabki bosqichi bo'lgan ushbu bosqichda umumiy o'rta ta'limga muktablari o'quvchilarini kasb-hunarga samarali yo'naltirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning umumiy mazmunini aks ettiruvchi harakat dasturi va ishchi reja ishlab chiqildi, amaliy faoliyat olib boriluvchi umumiy davr va bosqichlar belgilandi, ularda bajarilishi zarur bo'lgan aniq vazifalar, ularning bajarilish muddati belgilandi. Tajriba-sinov ishlari uchun ob'yektlar tanlandi, umumiy o'rta ta'limga muktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning shaxsi va faoliyati mohiyati, pedagogik tajribalari borasidagi ma'lumotlarni to'plash, ular bilan muloqotlar tashkil etish, qo'lga kiritilishi kutilayotgan natijalar xususida ma'lumotlar berildi. Respondent–o'qituvchilar soni aniqlandi, amaliy faoliyatga jalgan etilgan o'quvchilar tajriba va nazorat guruhlariga biriktirildilar. Umumiy o'rta ta'limga muktablari hamda respondent o'quvchilarning faoliyatlari bevosita va bilvosita o'rganildi, ular o'rtasida dastlabki anketa va ijtimoiy so'rovlari tashkil etildi, natijalar umumlashtirildi, ular asosida xulosalar chiqarildi.

Xulosalarga tayangan holda faoliyat dasturi va rejada belgilangan vazifalarning mohiyati yanada aniqlashtirildi. Umumiy o'rta ta'limga muktablari

o‘quvchilarini jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiga yo‘naltirishga xizmat qiluvchi ishlanmalar (ko‘rgazmali quollar, video lavhalar, turli xil jihozlar va hokazo) tayyorlandi.

2.Tajriba-sinov ishlarining bevosita tashkil etish bosqichi. Ushbu umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiga yo‘naltirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga imkon beruvchi shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, mavjud jismoniy tarbiya va sport tizimidagi kasblar mohiyatini yorituvchi ma’lumotlar bazasi, ularni o‘quvchilarga yetkazib beruvchi hamda o‘quvchilarga ma’lum kasbiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish borasidagi dastlabki ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi ishlar tashkil etildi.

3.Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichi. So‘nggi bosqichda amaliy faoliyat ko‘rsatkichlarini umumlashtirish, tahlil etish, asosiy natijalarni esa matematik-statistik metod yordamida qayta tahlil etish hamda umumiy xulosalarni chiqarish kabi harakatlar olib borildi.

Ma’lumki, tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatini ta’minlashda ko‘zlangan maqsadga erishish va vazifalarni ijobjiy hal etishga imkon beruvchi samarali shakl, metod va vositalarning tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois amaliy faoliyatni tashkil etish jarayonida qo’llaniluvchi shakl, metod va vositalarni belgilab olish hamda bevosita tajriba orqali ularning samaradorligini aniqlashga ham e’tibor qaratildi.

Ayniqsa, so‘rovnama metodi tadqiqotning asosiy omili bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqot maqsadini yoritishga qaratilgan anketani to‘ldirishda o‘quvchilar savollarga ha yoki yo‘q, ayrim hollarda javobni o‘zlari bilganicha yozishgan. O‘quvchilarning ota-onalari bilan suhbat o‘tkazilganda, ulardan farzandini qaysi kasbni egallashini xohlardingiz, o‘g‘lingiz (qizingiz) ni kelajakda kim bo‘lishini istaysiz degan mazmundagi savollarga javob olib o‘tkazilgan suhbatlar o‘quvchilarni jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiga qiziqishini shakllantirish uchun kerakligi ekanligi materiallarni to‘lashga imkon berdi.

Olib borilgan ilmiy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktab o‘quvchilarini kasbga tayyorlash, ayniqsa jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiga yo‘naltirish va qiziqtirish ishlari ta’lim tizimiga tegishli bo‘lgan me’yoriy-huquqiy asoslarga to‘la javob bermaydi. Shu tufayli umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Kasb tanlash” nomli darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun maxsus dastur 8-9 sinf o‘quvchilariga mo‘ljallab ishlab chiqildi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi kasbiga yo‘naltirishga oid tuzilgan “Kasb tanlash” maxsus dasturi 8-9 sinf o‘quvchilariga kasb haqida nazariy va amaliy ma’lumotlarni kengaytirilgan holda berishni nazarda tutadi.

Darsdan tashqari mashg'ulot uchun o'tkaziladigan joy-maktab sport zallari, trenajer xonalari, sport maydonchalari kabi muhim ob'yektlar bo'lishi kerak. Ushbu darsdan tashqari mashg'ulotning dasturi umumta'lim maktablarida olib boriladigan boshqa mashg'ulotlar bilan hamkorlikda olib borilishi mumkin.

Darsdan tashqari mashg'ulot 68 soatga mo'ljallangan bo'lib, haftasiga 2 soatdan 8-9-sinf o'quvchilari ushbu darsdan tashqari mashg'ulotga o'z xohishlari bilan yozilishadi. Mazkur mashg'ulot kasb tanlash fanini tarkibiy qismlaridan bo'lib, o'quvchilarni kasb tanlashga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga xizmat qiladi. Undan tashqari mashg'ulotda quyidagi maxsus masalalar hal etiladi:

1.O'quvchilarni ijtimoiy hayotdagi turli kasblar to'g'risidagi tushunchalarini shakllantiradi, hamda jismoniy tarbiya o'qituvchisi to'g'risidagi ma'lumotlardan kengroq xabardor bo'ladi;

2.Jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbini tanlashda o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini ularning qobiliyati, moyilligi, qiziqishi hamda salomatligini hisobga olgan holda qat'iy qiziqishini shakllantiradi;

3.Joylarda ushbu kasbning zarurligini hamda mamlakat miqiyosida e'tibor berilayotganini hisobga olgan holda kasb tanlashni ilmiy asosda tashkil etishni taqozo etadi.

### XULOSA

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, mashg'ulotning asosiy mazmuni va maqsadi maktab o'quvchilarini kasb haqidagi tushunchalarini oydinlashtiradi. Xususan, jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiga qiziqishini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor beriladi.

Ushbu mashg'ulotni jismoniy tarbiya o'qituvchisi, sport instruktori, tajribali murabbiylar, olib borishlari mumkin. Mashg'ulotni tashkil etishda turli xil metodlardan foydalananiladi. Ayniqsa, suhabatlar, uchrashuvlar ko'rgazmali qurollar, sport majmulariga sayohatlar, turli xil filmlar va musobaqalarning o'rni kattadir.

Biz yoshlarga bugungi kundagi imkoniyatlarni yaratib berishga harakat qilishimiz lozim. Sababi bunday sharoitlar hammaga ham berilavermaydi. Hozirgi yosh avlodlar berilgan imkoniyatlardan oqilona va samarali foydalansagina natija berishi mumkin. Aks holda, noto'g'ri harakatlar orqali kimgadur aziyat yetkazib qo'yishimiz mumkin. Shuning uchun biz yoshlar berilayotgan sharoitlardan oldimizga qo'yilgan maqsadlarimiz yo'lida foydalinishga harakat qilishimiz lozimdir.

Har bir kasbning o'z qiyinchiligi bo'lgani kabi jismoniy tarbiya kasbiga o'quvchilarni qiziqishini uyg'otish ham bir san'at va qobiliyatdir. Hozirda

barcha o'quvchilar jismoniy tarbiya darsini qiziqish bilan kutishadi va o'ynashadi. Shunday ekan o'quvchilarni kasbimizga qiziqishini yana ham uyg'otish uchun qo'llimizdan kelgancha harakatimizni so'ndirmasligimiz, har doim o'z ustimirda izlanib o'qishimiz, bilimimizni oshirishimiz muhim deb o'ylayman.

### **ADABIYOTLAR:**

- 1.Xankeldiev, Sh. X., & Xasanov, Sh. (2021). Osobennosti metodiki podgotovki yuno'x bokserov na predsorevnovatelnom etape. InNauka segodnya: problemo'i puti resheniya(pp. 93-94).
- 2.Shojaxon, X. (2022, October). HARAkatga O'RGATISHNING USLUBIY TAMOYILLARI. InE Conference Zone (pp. 39-51).
- 3.Shojaxon, X. (2022, October). TA'LIM JARAYONIDA HARAkatga O'RGATISHNING METODLARI VA ETAPLARI. InE Conference Zone(pp. 19-31).
- 4.Xankeldiev, Sh. X., & Xasanov, Sh. (2021). Aktsentirovannaya fizicheskaya podgotovlennost yuno'x bokserov na nachalnom etape obucheniya. InNAUKA SEGODNYa: ISTORIYa I SOVREMENNOST(pp. 41-43).
- 5.Valievich, D. S., & Iqbolakhan, A. (2022, November). PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF IMPROVING PHYSICAL FITNESS OF GENERAL EDUCATION SCHOOL STUDENTS (IN THE EXAMPLE OF PRIMARY CLASSES). In E Conference Zone (pp. 1-13).
- 6.Jalolov, S., & Abduraxmonov, S. (2022). Evaluation of the development of older school children on health tests. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 927-930.
- International Conference on Developments in Education Hosted from Delhi, India <https://econferencezone.org> 23rdNov.202273 | Page
- 7.Jalolov, S., & Ilyasova, M. (2022). Resistant to the development of physical education in the lessons. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 870-874.
- 8.Haydaraliev, X., & Malikov, I. (2022, June). LOADING AND ITS NORM IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS. InE Conference Zone(pp. 60-63).
- 9.Haidaraliev, H., & Nizamova, S. (2022). AGE-RELATED FEATURES OF MOTOR QUALITIES IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(05), 94-100.

- 10.Xaydaraliev, X. X. (2022). TEENOLOGIYa KOMPETENTNOSTNOGO PODXODA DLYa SOVERShENSTVOVANIYa ANTIKORRUPTsIONNOGO MO'ShLENIYa STUDENTOV.World scientific research journal,2(2), 202-210.
- 11.Haydaraliev, X., & Isakov, D. (2022). Methods of Controlling the Physical Loads of Players.Texas Journal of Multidisciplinary Studies,8, 133-135.
- 12.Xaydaraliev, X. X. (2022). ROL RITMICHESKOY GIMNASTIKI V DOShKOLNOM OBROZOVATELNOM UChREJDENII DLYa DOShKOLNIKOV.Academic research in educational sciences,3(3), 591-599.
- 13.Avazbek, M. (2022, October). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKILLASHNING DIDAKTIK PRINTSIPLARI. InE Conference Zone(pp. 32-44).